

## **MAHALLIY BUDJETLARNI BALANSLASHTIRISH USULLARI VA ULARNI HUDUDLAR RIVOJLANISHDAGI O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7820023>

**Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)*

*mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

### **Annotatsiya.**

*Maqolada mahalliy budjetni balanslashtirish, hududlar rivojlanishdagi o'rni hamda mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini shakllantirish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samaradorligini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

### **Kalit so'zlar.**

*mahalliy budget, mahalliy budget daromadlari, mahalliy soliqlar va yig'imlar, mahalliy budget barqarorligi, yalpi ichki mahsulot, yalpi hududiy mahsulot*

## **METHODS OF BALANCING LOCAL BUDGETS AND THEM THE ROLE OF REGIONS IN DEVELOPMENT**

*In the article, the balance of the local budget, the role of regions in the development and formation of the revenue base of local budgets, local scientific and practical way to ensure the efficiency of budget revenues and expenditures aspects are highlighted. Based on the study, practical recommendations were developed.*

### **Key words.**

*local budget, local budget revenues, local taxes and fees, local budget sustainability, gross domestic product, gross regional product.*

## **СПОСОБЫ СБАЛАНСИРОВАНИЯ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ И ИХ РОЛЬ РЕГИОНОВ В РАЗВИТИИ**

*В статье сбалансированность местного бюджета, роль регионов в развитии и формировании доходной базы местных бюджетов, местная научно-практический*

способ обеспечения эффективности доходов и расходов бюджета аспекты выделены.  
На основе исследования были разработаны практические рекомендации.

**Ключевые слова.**

местный бюджет, доходы местного бюджета, местные налоги и сборы, устойчивость местного бюджета, валовой внутренний продукт, валовой региональный продукт.

**KIRISH**

2023-yilgi budgetni tasdiqlash yangi amaliyotni joriy qilish bilan bog'liq bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti Oliy Majlis tomonidan qonun shaklida qabul qilindi, ya'ni xalqaro standartlar va budget ma'lumotlariga muvofiq "O'zbekiston Respublikasining 2023 yilgi Davlat budgeti to'g'risida"gi Qonunni tayyorlashning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, budget mablag'larini shakllantirish va xarajatlari ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish tartibi belgilandi. Birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan respublika budgetidan ajratiladigan budget mablag'larining 10 foizgacha bo'lgan cheklangan miqdorlarini mahalliy budgetlaridan moliyalashtiriladigan o'z tasarrufidagi tashkilotlarga yo'naltirish hamda mahalliy budget o'z-o'zini moliyalashtirish uchun ajratilishi ham alohida ahamiyatga ega. Budget siyosati 2023- yildan boshlab yanada puxta o'ylangan fiskal siyosatni amalga oshirishga, iqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosib o'sishiga va mamlakat moliya tizimining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Mahalliy vakolatli organlardan hudud imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, mahalliy budgetlar daromad manbalarini mustahkamlash va mustaqilligini izchil oshirib borishni hisobga olgan holda budget daromadlarining to'liqligini ta'minlash ishlarida faol ishtirok etish talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy budgetlarni tartibga solish usullari masalalari hududlarning daromad salohiyatini shakllantirishda, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, iqtisodiyot tarmoqlarining faol rivojlanishini ta'minlashda, infratuzilmani yaxshilashda, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni ta'minlashda, mahalliy budget xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirishda alohida ahamiyatga ega.

Mamlakat hududlarining resurs salohiyati bir xil emasligi, aholi zinchligi, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi darajalaridagi farqlar tufayli aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM, sanoat mahsuloti, pullik xizmatlar, pullik daromadlar kabi ko'rsatkichlar hududlararo farq qiladi. Bu farqlarning chuqurlashuvi, o'z

navbatida, milliy iqtisodiyot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shunda ham rivojlanish darajasi past hududlardan kapital qochishi holatlari ro'y berishi mumkin. Bu esa turli hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajalarida mavjud bo'lgan farqni yanada chuqurlashtiradi.

Respublikamizda so'nggi yillarda budjet tizimida olib borilayotgan islohotlar mahalliy budgetlar daromad manbalarini barqarorligini ta'minlashga asos bo'lib hisoblanmoqda. Hozirgi kunda hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy budgetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy budgetlarni daromadlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat budget-soliq va pul-kredit siyosati vositalaridan foydalangan holda iqtisodiy ko'rsatkichlar darajasidagi hududiy tengsizlik darajasini yumshatish uchun resurslarni qayta taqsimlaydi. Resurslarga boy, sanoati rivojlangan hududlarning davlat budgeti daromadlaridagi ulushi yuqori bo'lgani holda, budget mablag'lari hududlar o'rtasida ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, kam rivojlangan hududlar rivojlanishi darajasini jadallashtirish maqsadlarini ko'zlab taqsimlanadi.

Markazlashgan budgetga kelib tushadigan umumdavlat soliqlarining hududlar ixtiyorida qoldiriladigan ulushini ko'paytirish, ayrim hududlarga kiritiladigan investitsiyalar hisobiga ishlaydigan korxonalarga soliq imtiyozlarini berish, ularni imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish davlat hududiy iqtisodiy siyosatining muhim elementlaridan biridir.

Mahalliy budgetlarning hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta hisoblanadi. Chunki hudud o'zining belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini bajarishda markazlashgan budgetdan ajratiladigan mablag'lardan tashqari, asosan, mahalliy budget mablag'lariga tayanadi. Mahalliy budgetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassalarini, mahalliy hokimiyat boshqaruv organlarini, kam ta'minlangan oilalarga beriladigan nafaqalar moliyalashtirilib boriladi. Boshqaruvning iqtisodiy usullari tizimida mahalliy budgetlar alohida olingan hududning kompleks rivojlanishini ta'minlashda, eng maqbul hududiy qayta ishlab chiqarish nisbatlarini o'rnatishda va aholi turmush darajasini yaxshilashda faol ro'l o'ynaydilar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, mahalliy budgetlar davlat hokimiyati organlari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini hal etishda foydalilanildi. Boshqaruvning iqtisodiy vositasi sifatida ular:

**Birinchidan,** hududiy ishlab chiqarishning barcha tomonlariga tavsif berishning keng miqyosi;

**Ikkinchidan,** mazkur iqtisodiy kategoriyaning qayta taqsimlovchilik xususiyati sababli ta'sir etishning yuqori darajasi tarzida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda quyidagi Surxondaryo viloyatining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hamda 2024-2025-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari mo'ljallari haqida ma'lumot berib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

No	Ko'rsatkichlar	2022-yil n	2023-yil n prognoz	2024-yil n mo'ljal	2025-yil n mo'ljal
1	Yalpi hududiy mahsulot, trln.so'm	30,9	37,3	42,6	48,7
2	Yalpi hududiy mahsulotning o'sishi, foizda	104,0	107,5	107,4	107,7
3	Iste'mol narxlari indeksi, dekabrda lgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	109,5	102,4	102,1	101,1
4	Sanoat mahsulotlarining o'sishi, foizda	104,4	109,0	108,0	110,0
5	Qishloq, o'rmon va baliq liklarida ishlab chiqarishning o'sishi, foizda	102,5	103,7	103,9	104,2
6	Chakana tovar aylanmasining o'sishi, foizda	113,0	114,0	115,0	117,0

**1-jadval. Surxondaryo viloyatining 2023-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognoz ko'rsatkichlari hamda 2024-2025-yilga mo'ljallari<sup>134</sup>**

Jadvaldan bo'yicha quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin, viloyatning Yalpi hududiy mahsuloti 2023-yil 2022-yilga nisbatan 6,4 trln so'mga oshgan. Umuman olganda 2024-2025-yillar uchun prognoz qilingan ko'rsatkichlar o'rtacha yiliga 5-6

<sup>134</sup> surxonstat.uz ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

trln so'm o'sish belgilangan. Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati esa 2023-yil 2022-yilga nisbatan 3,5% ga o'sgan. 2024-yil uchun prognoz qilingan ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan o'sish bo'limgan. Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati 2025-yil uchun qilingan prognoz ko'rsatkichi 0,2 % o'sish deb belgilangan.

Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2023-yil 2022-yilga nisbatan 4,6% ga o'sish belgilangan. 2024-2025-yillar uchun sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati o'rtacha 2% o'sish belgilangan.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rini turibdiki, agar yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichi va sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati qanchalik yuqori ko'rsatkich qayd etsa mahalliy budget daromadlari yuqori darajada o'sishni qayd etadi.

Boshqaruv budget usullari tizimining ma'lum bir vaqt emas, balki mahalliy boshqaruv organlarini rivojlantirish maqsadlari va masalalarining o'zgarib turishiga muvofiq dastaklar tizimi orqali doimiy ravishda shakllantirib borilishidan kelib chiqadigan egiluvchanlik xususiyati bilan ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi, mahalliy budgetlarni shakllantirishning qonuniy asoslari bo'lib "Budget tizimi to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi "Budget kodeksi" O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risidagi qarorlari hamda budget to'g'risidagi qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

Mahalliy budgetlar, asosan, mahalliy soliqlar va yig'imlar orqali shakllantiriladi. Mahalliy soliqlarga esa quyidagilar kiradi: (1-rasm)

Yuqoridagi mahalliy soliq va yig'imlar mahalliy budget daromadlari sifatida qaraladi hamda mahalliy budget smetasida daromad sifatida aks etadi. Mahalliy budgetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borilayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100% mahalliy budgetlar tomonidan moliyalashtiriladi, ya'ni mahalliy budget smetasining xarajatlar qismi, asosan, ijtimoiy himoya uchun qilingan xarajatlar hisoblanadi. Jami ijtimoiy soha xarajatlarining qariyb 80% mahalliy budgetlar orqali moliyalashtiriladi. Mahalliy budgetlar umum davlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.



**Mol-mulk solig‘i**



**Yer solig‘i**



**Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq**



**Yagona soliq**



**Ayrim turdag'i tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig‘im;**

### **1-rasm. Mahalliy soliqlar<sup>135</sup>**

Budjetlarni balanslashtirish budjetlar o‘rtasida daromad manbasinig qonun bilan biriktirilgan tarzda taqsimlanishi orqali, ya’ni davlat budjeti daromadlarini taqsimlash tartibi, hududiy budjetlarga minimal hajmda zarur bo’lgan daromadlar darajasini ta’minalash uchun amalga oshiriladi. Budjetlami balanslashtirishning to’rtta usuli mavjud:

- budjet daromadlarining tartibga soluvchi manbalarini belgilash va taqsimlash;
- budjet mablag’larini o’zini taqsimlash;
- quiyi budjetlarga yuqori darajadagi budjetlar mablag’laridan beg’araz yordam ko’rsatish (dotatsiya, subvensiya, transfertlar va subsidiyalar);
- bir budjet mablag’laridan boshqa budjetlarga ajratiladigan ssudalar.

<sup>135</sup> Nazariy ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy budjet mablag'larini ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, unda bu hudud shunchalik darajada o'z oldiga qo'ygan vazifalarini bajarishda ko'p salohiyatga ega hisoblanadi. Mamlakat hududlarining o'z mahalliy budjet mablag'laridan foydalanish darajasining yuqoriligi respublika darajasidagi dasturlarga ajratiladigan mablag'larning ko'payishiga olib keladi va ularni amalga oshirishni osonlashtiradi.



- sanoat ob'ektlarini ishga tushirish,
- bankrot korxonalarini sog'lomlashtirish ishlarini amalga oshirish,
- yangi kichik biznes sub'ektlarini ishga tushirish,
- amaldagi korxonalarga imtiyozlar berishni qayta ko'rib chiqish orqali ularning sonini kamaytirish,
- yuqori budjetdan beriladigan daromadlar mexanizmini shakllantirish va boshqalar.

## **2-rasm. Mahalliy budjetlarni daromad bazasini oshirish va subvensiya olishni qisqatirishga qaratilgan dastur yo'nalishlari<sup>136</sup>**

Shuning uchun mahalliy budjetlarni daromad bazasini oshirish, subvensiya olishini qisqatirishga qaratilgan dastur ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: (2-rasm)

Shu bilan birga, iqtisodiyotning quyidagi tarmoqlarini rivojlantirish mahalliy byudjetlarning o'z daromad manbalarini oshirishga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatadi:

- sanoat ishlab chiqarish,
- qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashga yangi texnologiyalarini jalb etish,
- xizmatlar sohasini rivojlantirish va h.k.

<sup>136</sup> Nazariy ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Ayrim iqtisodchilar bu omillarga mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolat va mas'uliyatini oshirish orqali erishish mumkinligini e'tirof etishsa, ba'zi iqtisodchilar esa daromadlar va xarajatlar mutanosiblikka erishish orqali amalga oshirilishi mumkinligini tan olishadi. Xususan, A.Islomqulovning fikricha, mahalliy byudjet daromadlari, bir tomondan, yalpi ichki mahsulot qiymatining ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu qiymat hisoblanadi va u mahalliy ahamiyatga ega fondni shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi budget tizimining shakllanishi va rivojlanishining butun davrida mahalliy budgetlar, quyi bo'g'in sifatida, ularga yuklatilgan funksiyalar bilan ortiqcha yuklangan. X.Qobulov ta'kidlashicha, mahalliy budgetlarning moliyaviy imkoniyatlari doimo o'zgarib,

ba'zan mahalliy soliqlar va yig'imlar ko'pligi tufayli ko'payib, ba'zan kamayib borgan, lekin soliq qonunchiligi budgetlarning daromad bazasining faqat bir qismini turli darajadagi budgetlar uchun doimiy asosda ta'minlaydi. Shuning uchun daromad va xarajatlarni muvozanatlashning yana bir qo'shimcha tartibi mavjud - budget orqali tartibga solish.

## XULOSALAR

Yuqoridagi mulohazalardan va tahlillardan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning mustaqilligini oshirish uchun, *birinchi navbatda*, byudjet orqali tartibga

solistihi hisobga maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki bu mutanosiblikni ta'minlash maqsadida ular o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlashning eng muhim mexanizmi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari hisoblanadi. *Ikkinchi navbatda esa*, hududlar kesimi bo'yicha hududiy mablag'larni ko'paytirish yo'llarini ishlab chiqish hamda undan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. *Uchinchi navbatda*, mahalliy budgetlarni tartibga solish usullari amal qilishining

to'g'ri qurilgan va samarali mexanizmi hudud daromad salohiyatini shakllantirishning ijobjiy omillaridan biridir. Har bir hudud o'zining hududiy mablag'larini ko'paytirish uchun hudud yalpi mahsulot hajmini oshirish buning zamirida esa o'sha hududda mahalliy ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish yotadi.

**ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada

rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-son va "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"

2. 2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida//

<https://lex.uz/uz/docs/-6333240>

3. 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida//

<https://lex.uz/docs/-58011273>.

4. Soliq va budget siyosatining 2019-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida//<https://lex.uz/docs/-4123665>

5. Burxonov E.M. Mahalliy byudjetlarni muvozanatlashning iqtisodiy va huquqiy masalalari. - Toshkent: Узбекистон, 2017.

6. Сирохиддинова З.Х., Вахобов А.В., Сиддиков Ж.Р. Государственный бюджет Республики Узбекистан. Учебное пособие. -Т.: ТФИ, 2021.

7. Чеснокова Л.А. "Совершенствование механизма распределения налоговых доходов по уровням бюджетной системы РФ". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Саранск, 2021

8. Юлдошева Н.Н. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини ошириш масалалари// Экономика и финансы (Узбекистан). №3. 2021.

9. Рӯзиев З.И. Маҳаллий бюджет даромадларини шакллантириш ва самарадорлигини ошириш истиқболлари// Инновацион технологиилар, №. 3 (39), 2020.

10. Rustamova M.M., Dementiev A.N. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muvozanatlashning ba'zi muammolari // O'zMU axborotnomasi. 2020.

11. Аллаяров С. Р., Зайнитдинов С. М. ӵ. Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи //Science and Education. – 2021. – Т. 2.– №. 11. – С. 1156-1169.